

AMIR TEMUR DAVRIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

*Xamraqulova Xusniyora Xamidullo qizi
Andijon Davlat Universiteti, Tarix fakulteti talabasi
Abdugofurov Shohjaxon Muxammadqobul o'g'li
Tabiiy Fanlar Fakulteti talabasi*

Anotatsiya. Tarixdan yaxshi ma'lumki Amir Temur o'zining Temur Tuzuklari asarida " Davlat mashvaratini to'qqiz ulushini aqil va bir ulushini qilish bilan boshqardim" - deb ta'kidlab o'tgandek. Temurning hukmronlik davrlarida asosan davlatni rivojlantirish uchun diplomatik va savdo-sotiq aloqalaridan foydalangan. Davlat poytaxtini Samarqand shahriga ko'chirgandan so'ng ushbu shaharni shu darajada yuksaltirishga e'tibor berdiki diplomatik aloqalar uchun kelgan elchilarning asosiy qismi ham aynan shu shaharda kutib olinardi. Maqolada Amir Temur davrida diplomatik munosabatlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Abstract. Is well known from history that Amir Temur, in his book Tuzuklari Temur, said, "I led the State Council with nine parts wisely and one part wisely." During Timur's reign, he mainly used diplomatic and trade relations to develop the state. After moving the capital to Samarkand, he focused on raising the city to such a level that most of the ambassadors who came for diplomatic relations were received in this city. The article focuses on diplomatic relations during the reign of Amir Temur.

Анотация. Истории хорошо известно, что Амир Темур в своей книге «Тузуклари Темур» сказал: «Я руководил Государственным Советом девятью частями мудро и одной частью мудро». Во время правления Тимура он в основном использовал дипломатические и торговые отношения для развития государства. После переноса столицы в Самарканд он сосредоточился на том, чтобы поднять город до такого уровня, чтобы большинство послов, прибывавших для установления дипломатических отношений, принимались в этом городе. Статья посвящена дипломатическим отношениям в период правления Амира Темура.

Kalit so'zlar. Amir Temur, diplomatiya, Temuriylar davlati, Samarqand, Fransiya qiroli Karl VI, Genrix III.

Keywords. Amir Temur, diplomacy, Timurid state, Samarkand, King Charles VI of France, Henry III.

Ключевые слова: Амир Темур, дипломатия, государство Тимуридов, Самарканд, король Франции Карл VI, Генрих III.

Kirish. Amir Temur qudratli sarkarda va Temuriylar davlati o'z davrining eng buyuk davlati bo'lgani tarixdan yaxshi ma'lum. Uning davrida Movorounnaharda

savdo-sotiq va diplomatiya aloqalari anchagina rivoj topdi. Birgina misol qilib aytadigan bo’lsak Amir Temur turk sultonı Boyazid Yildirimni mag’lub etgandan keyin ko’plab Yevropa qirollari va hukmdorlari unga sovg’a-salomlar yuborib qozongan g’alabasi bilan tabriklashgan. Temurning diplomaatik aloqalari va mahoratini ta’riflab Gammer shunday deb yozadi – “ Temurni Aleksandr Makedonskiy bilan tenglashtirish kerak. Bu taqqoslash ularning hayot yo’llari va erishgan yutuqlari nuqtai nazaridan emas, balki ularning insoniyligi, istilo qilingan yerlari ko’lami, jasurliklari va ularning kamsuqumliklari jihatidan ham o’xshashlidir.

Aleksandr Makedonskiy yunon va fors madaniyati yuksalishida va univyojlanish davrida voyaga yetgan va Temurga qaraganda ma’rifatati yuqori edi. Ammo Temur undan sarkarda va zabit etilgan mamlakatlar va ellarning istedodli hukmdori bo’lganligi bilan xam ustundir. Aleksandr maishatdan zaiflashgan xalqlarni o’ziga bo’ysundirgan bolsa, Temur jangovar podshoxliklarni zabit etdi. Aleksandr taxtda dunyoga keldi, Temur esa kulbada. Jaxon sahnasiga chiqishdagi bu farqdan qat’iy nazar Amir Temurdek barqarorlik o’z o’zini boshqarish va xushyorlik Temurni qudrat cho’qqisiga ko’tardi va bu fazilatlar uning xayotini so’nggi daqiqalarigacha tark etmadi. Bundan tashqari, tezroq yo'l bosishlari uchun ularga har kuni podishohning yangi otlari berilib turdi; chunki podishohning farmoni bilan har ertasi kuni bir joyda yuzta, ikkinchi joyda ikki yuztacha ot hozirlanib turilardi. Samarqandga qadar shu hol davom etardi. Podishoh biror bir kishini u yoq- bu yoqqa yuboradigan yoki uning huzuriga biror bir kishi keladigan bo’lsa , mana shu otlarda iloji boricha tezroq, kecha-yu kunduz yo'l bosilishi lozim edi. Mamalakatning kimsasiz joylarida ham, aholi yashaydigan joylarida ham bu otlar tayyorlab turilardi.-Ushbu misoldan ko’rinib turibdiki, Amir Temur millarlar aro qadr-qimmatni va insoniy fazilatlarini ko’ngliga jo etganligini yaqqol tushunish mumkin

Asosiy qism.Amir Temurning diplomatik aloqalariga xayratlanmay ilojimiz yo’qligining yana bir yaqqol dalili bu uning Fransiya qiroli Karl VI xuzuriga yuborgan elchilik aloqalarini olib borish uchun yuborgan elchisi sobiq xristian ruxoniysi ekanlidigkeitadir.

Fransiya qiroli Karl VI huzuriga yubrilgan elchilarini qabul qish jarayonida Karl VI va saroy a’yonlarini Uzoq sharq o’lkasidan Parijfga kelgan ruxoniyning so’zlarini diqqat bilan tinglashdi. Olis sultoniga arxiyepiskopi Joat II nomi tillarda doston Temurbekning diplomatic elchisi sifatida Fransiyaga kelgan musulmon podshohining elchisi xristian ruxoniysi ekanligi ajabtovur xol edi. Uning tarjimai xoli xam saroy ayonlarini g’oyatda qiziqtirdi. U Naxichevonda armanlar raxnamosi bo’lgan. Sultoniyada yepiskop bo’lib turganda Amir Temur askarlari tomonidan asirga olingan edi. Keyinchalik u Temur xuzurida mavqeい ortib elchilk darajasigacha ko’tarilgan edi. Tarixiy voqelikni har taraflama va chuqur tahlil qilmasdan turib avvaldan qandaydir bir ijtimoiy yo hissiy buyurtma bilan bir mavzu yo shaxsni ulug’lash oqlash, yo

qoralash maqsad qilib qo‘yilsa xalqaro munosabatlar tarixida xatolik bo‘ladi. Amir Temur davri xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi o‘zi yashagan davr uchun ham hozirgi davr uchun ham muhim hisoblanadi. Amir Temurning davlat xavfsizligini ta`minlash maqsadida olib borgan siyosati va qoshni davlatlar bilan olib brogan aloqalari va jahongirlik faoliyatini butun dunyo o‘rganmoqda va tahlil qilmoqda. Temur bu davrda Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV hamda Kastiliya va Lion qiroli Genrix III Trastamaralar bilan diplomatik aloqalaro’rnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida ayniqsa Fransiya Vizantiya imperiyasi taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqorolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulkclarini, ayniqsa G‘alatiyadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Amir Temurdan madad kutar edi. Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qirolni jiddiy qo’llab - quvvatlaydi. Shunday qilib Temurning Kichik Osiyo va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan olib brogandastlabki diplomatik yozishmalar va elchilik aloqalari Boyazdga qarshi qaratilgan va birgalikda kurashish edi. Ammo Sohibqiron Boyazd ustidan g’alaba qozonganidan keyin G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan do’stona munosabatlarni mustahkamlash hamda elchilik va o’zaro savdo-sotiq aloqalarini yo’lga qo'yish kabi masalalar bilan cheklandi¹.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki Amir Temur davlatida yetuk xalqaro diplomatiya an'anasi shakillangan edi. Amir Temur o‘zi uning barcha qoidalariga to’la amal qilar edi. Uning davlatida xalqaro elchilik va savdo –sotiq bobida olib borilgan ishlari avlodlari tomonidan davom ettirildi, rivojlantirildi. Bu kabi diplomatik marosimlarda aytilgan har bir so‘z va bosilgan har bir qadam o‘ziga xos ma’noga ega bo’lib, shu o’lkaning milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ichki hamda tashqi siyosatini namoyish etish uchun foydalanilgan. Elchilarining amirdan oldin qariya qoshiga, so’ngra neveralar oldiga salomga olib borilishida ham muayyan bir ma’no yotadi -bir tarafdan, keksalarga hurmat va yoshlarga izzat bu o’lkaning odati ekanligini namoyish qilsa, ikkinchi tarafdan, yosh avlodga - kelajakhukmdorlariga ham munosib hurmat ko’rsatish lozimligi, davlatning davomiyligini e’tirof etish va shu bilan birga diplomatianing nozik qonunqoidalarini ularga yoshligidan singdirib borish, chet elliklar bilan muloqotga taylorlash maqsadlari nazarda tutilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. A.Muhammadjonov. Temur va Temuriylar sultanati. Toshkent-1994-yil.
2. Heman Vamberi. Buxoro yoxud Mavarounnahr tarixi. Toshkent- 1990-yil.
3. Omonulla Bo‘rev. Temuriylar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo. Toshkent. 1997-yil.
4. Sharafiddin AL-Yazdiy “Zafarnoma” Toshkent, Kamalak, 1994 yil.

5. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur{Temur tarixida taqdir ajoyibotlari} Toshkent-1992-yil.
6. Ivanin “Ikki buyuk sarkarda” Toshkent-1994-yil..
7. Yelgeniy Berezikov. Buyuk Temur.Toshkent-1996-yil.
8. SOHIBQIRON AMIR TEMURNING XALQARO ALOQALARDA DIPLOMATIK MAHORATI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR <https://doi.org/10.5281/zenodo.6226288> Toshtemirov Shukurilla Abdiraxmon o‘g‘li.